

ABDULLA AVLONIYNING VATANPARVARLIKNI TARBIYALASHGA OID FALSAFIY QARASHLARI

Yakubova Sitara Sharifovna

BMTI akademik litsey tarix fani o`qituvchisi

XX asr boshlarida xalqimizning ma'naviy-falsafiy qarashlari, birinchi navbatda, ma'rifatparvarlik va uning yangi bosqichi bo'lgan jadidchilik bilan bog'liq bo'lgan davr ma'naviy merosini o'rganish hozirga globallashuv sharoitida dolzarb muammolaridan biridir. Jadidlar ta'lim – tarbiya haqida ayniqsa vatanparvarlik haqida ilgari surgan g'oyalarda millatni taraqqiy etish ko'p qirrali ijtimoiy-ma'naviy hodisa sifatida yondashib o'z qarashlarini namoyon etgan. Jadid ma'rifatparvarlari bilan bog'liq bo'lgan merosini keng o'rganish va targ'ib etish respublikamizdagi barcha ta'lim musassalarida tahsil olayotgan yoshlarimizni milliy g'oya talablari ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi shubhasizdir.

Shuning uchun ham respublikamiz prezidenti Sh. M. Mirziyoyev tomonidan chiqarilgan 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son [qaroriga](#) muvofiq “Jadid ma'rifatparvarlari g'oyalari yosh avlod tarbiyasida foydalanish” chora-tadbirlari olib borilmoqda.[1] Jumladan, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan “Taraqqiyot strategiyasi” ning “Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash, ushbu sohani tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chish” deb nomlangan 5-bo'limidagi 69-maqсадda ham “Buyuk ajdodlarimiz boy me'rosini chuqur o'rganish va keng targ'ib qilish”ni ko'zda tutadi.

Jamiyatimizda jadidchilik harakati tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak yoshlarni tarbiyasiga oid qarashlari va amaliy harakatlari bilan buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning g'oyalari o'z davrida ham, hozirgi kunimizda ham muhim ahamiyatga egaligini anglash qiyin emas. Bu haqida muhtaram Prezidentimiz ham “Ko'pchilik ziyolilar qatorida men ham bir fikrni hamisha katta armon bilan o'ylayman: mamlakatimizda uchinchi renessansni XX asrda ma'rifatparvar jadid bobolarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Ular “Ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lishi ham mumkin emas”, degan hadisi sharifni hayotiy e'tiqod deb bildilar”, – deb ta'kidlaganlari bejoiz emas. Jumladan “Buyuk ajdodlarimizning betakror va noyob ilmiy-ma'naviy merosi biz uchun doimiy harakatdagi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Bu o'lmas meros hamisha yonimizda bo'lib, bizga doimo kuch-quvvat va ilhom bag'ishlashi lozim. Avvalambor, milliy ta'lim tizimini ana shunday ruh bilan sug'orishimiz kerak” deb mamlakatimiz rahbari go'yo biz ilm egalari oldiga muhim vazifa belgilab berdilar.[2]

Abdulla Avloniy. Turkiston ma'rifatparvarlari orasidagi yana bir mutafakkir ta'limshunos, pedagog va axloqshunos Abdulla Avloniydir (1887-1934). Uning XX

asr boshlarida Turkistonda mashhur bo'lgan «Turkiy guliston yoxud axloq» (1913) asari axloqiy muammolarga jadidchilik nuqtayi nazaridan yondashishi, ko'pchilikka tushunarli tilda yozilgani bilan ajralib turadi. Avloniy asarida fazilatlar va illatlarga ko'proq ta'rif berish, ularni sharhlash yo'li ustuvorlik qiladi. Abdulla Avloniyning «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida avvalo, millatni tarbiyalashni o'z ustiga olgan tarbiyachi muammosiga to'xtaladi: otalar — to'ychi, uloqchi, bazmchi, ilm qadrini bilmagan, muallimlar - o'zlari tarbiyaga muhtoj, dorilmualliminni tugatishi kerak bo'lgan, mudarrislar esa - darslari beimtixon, isloh yaqiniga yo'lamaydigan kishilar. Shu bois millat yoshlari tarbiyasini usuli jadid tarafdorlari - ta'lim -tarbiya tizimini zamonaviylashtirishga, isloh qilishga intilayotgan ziyolilar qo'lga olishlari kerak. Ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy yozganidek, «Tarbiya bizlar uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir». Avloniy tarbiyani, qadimgilar va o'rta asrlar musulmon Sharqi mutafakkirlari an'alariga suyanib, uchga bo'ladi: badan tarbiyasi, fikr tarbiyasi, axloq tarbiyasi. Fatonat, diyonat, sharaf, hayo singari musulmon Sharqi uchun an'aviy bo'lgan fazilatlar sharhi bilan birgalikda Avloniy vijdon, Vatanni suymak singari Turkiston mintaqasi uchun yangi talqinda taqdim etilgan fazilatlar haqida alohida to'xtaladi. Vatanni suymoq, lozim bo'lsa, uning yo'lida jonini fido etmoq yuksak axloqiy insonga xos fazilatdir. Inson Vatanni tanlamaydi. «Biz turkistonliklar o'z Vatanimizni jonimizdan ortiq suydig'imiz kabi, arablar Arabistonlarini, qumlik issiq cho'llarini, eskimo'lar shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik yerlarini boshqa yerlardan ziyoda suyarlar. Agar suymasalar edi, havosi yaxshi, tiriklik oson yerlarga o'z vatanlarini tashlab hijrat qilurlar edi», — deb yozadi bir o'rinda Avloniy.[3] Abdulla Avloniy o'z risolasida «yomon xulqlar»ga — illatlar tahliliga katta o'rin ajratadi. Millat taraqqiyotiga eng kuchli to'siq bo'ladigan illatlardan biri sifatida allomajaholatni keltiradi, jaholatni insoniyatning eng zo'r dushmani va yomon xulqlarning boshlig'i, deb ta'riflaydi. Avloniy g'azab, shahvat, hasad, kizb, tama singari illatlarga ham atroflicha to'xtaladi. Shunisi ahamiyatliki, Abdulla Avloniy axloqshunosiiik tushunchalarining faqat pedagogik emas, balki ham falsafiy, ham badiiy jihatdan izohlab beradi. Ma'rifatparvarning «Turkiy guliston yoxud axloq» risolasi XX asr Turkiston axloqiy tafakkurida salmoqli o'rinni egallaydigan, ham nazariy, ham amaliy axloq muammolarini falsafiy va pedagogik yondashuv orqali hal etishga bag'ishlangan yirik asardir.[4]

Xulosa qilib aytganda, Avloniy ijodiy merosi ma'naviy-ma'rifiy tarbiya g'oyasining targ'ibotchisidir. Uning asarlarida ilgari surilgan ta'lim-tarbiyaga oid fikrlar milliy ma'naviyatimiz rivojlanishida qimmatli bir manba bo'lib xizmat qiladi. Bu ulug' adib ijodi, amaliy faoliyati bugungi kun yoshlarimiz uchun ibrat maktabi ekanligi ayni haqiqatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.03.2021 yildagi PQ-5040-sonli “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. lex.uz
2. Shavkat Mirziyoyev. O‘qituvchi va murabbiylar – yangi O‘zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir. O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi tabrigi,” Xalq so‘zi”, 2020-yil 1-oktyabr. № 207. (7709) 3-bet.
3. A. Avloniy. Tanlangan asarlar, 2 jildlik, 2-jild. T., «M a’naviyat», 2006, 55-b
4. Sher, Abdulla. Axloqshunoslik: Oliy ta’lim m uassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari uchun darslik/Abdulla Sher; mas’ul muharrir B.E. Husanov; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. — T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2010. – 196-197 b